



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

2026-2027-o'quv yili 2-sinf
o'qish savodxonligi fanidan
IV chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

2026-2027-o‘quv yili 2-sinf o‘qish savodxonligi fanidan IV chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Aqlli yordamchilar	1		
2.	Elektr manbalari	1		
3.	Transport turlari	1		
4.	Yo‘l belgilari so‘zga kirganda...	1		
5.	Ajoyib topilma	1		
6.	Do‘stlikda hikmat ko‘p	1		
7.	Do‘stlikning qudrati	1		
8.	Yovlashmoq — oson, yarashmoq — qiyin	1		
9.	Do‘stlik– mustahkam rishta	1		
10.	Do‘stlik– mustahkam rishta	1		
11.	Do‘st har vaqtda qo‘llaydi	1		
12.	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1		
13.	Nazorat ishi-8	1		
14.	Nutq sehri	1		
15.	Nutq sehri	1		
16.	Avval – o‘yla, keyin – so‘yla	1		
17.	Jumlangiz bo‘lsin to‘g‘ri	1		
18.	Tilga bo‘ling hurmatda	1		
19.	Suv-zaminning yuragi	1		
20.	Tabiatni asrash burchimizdir	1		
21.	Tabiatni asrash burchimizdir	1		
22.	Tabiat qo‘ynida...	1		
23.	O‘tilganlarni mustahkamlash	1		
24.	Nazorat ishi-9	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Aqlli yordamchilar

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'quvchilarga kitob o'qish aqlni charxlashi, so'z boyligini oshirishi, xotirani mustahkamlashi, tasavvurni kengaytirishi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi va insonlarni yaxshilik qilishga undashi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- darsda o'tiladigan hikoyalar, she'rlar, ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan parchalar, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali tevarak-atrof haqidagi bilimlarini kengaytirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad- o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stirish. To'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini hamda lug'at boyligini rivojlantirish. Vatan haqidagi tushunchalarini boyitish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Ularni bitta so'z bilan ifodalang. Biz ularni yordamchilar deya olamizmi? Nima uchun?

Siz yana qanday yordamchi elektr jihozlarini bilasiz?



Kompyuter - ajoyib qurilma. Uning yordamida hisoblash, rasmlar chizish, turli ma'lumotlarni to'plash va saqlash mumkin. Kompyuter ishlashi uchun unga dastur deb ataluvchi ko'rsatmalar to'plami o'rnatiladi.

Aqlli sichqoncha

Muazzam Ibrohimova

Yaqin o'tgan zamonda, bilmam qaysi tomonda, ahil bir xonadonda kompyuter bilan sichqoncha juda inoq yashashar ekan. Ammo qahramonimiz boshqalarga o'xshamagani uchun ba'zan xafa bo'lib qolarkan. - Nega men boshqa sichqonchalarga o'xshamayman, kompyuterjon? Men ham maza qilib sakrashni, shiringina pishloqni yeyishni xohlayman. - Chunki sen aqlli sichqonchasan! - debdi kompyuter uning boshini silab. - Aqlli bo'lgim kelmayapti. Men sichqoncha Jerriga o'xshasam deyman! Mushukcha Tomning adabini beradigan mittivoy bor-ku... Kompyuter soniyalar ichida sichqonchani Jerriga o'xshatib qo'yibdi. - Ana, bo'ldi... Bor, bir maza qilgin! Faqat unutma, dastur ikki soatga mo'ljallangan... Sichqoncha stoldan sakrab tushib, raqsga tusha ketibdi. Umbaloq oshib yayrabdi. So'ng pishloq qidirishga tushibdi. Qarasa, burchakda, tagi taxtachali chiroyli temir ilgakda bir bo'lak pishloq turgan ekan. - Qoyil! U yugurib borib, mazali yegulikka tashlanibdi. Ammo uni olishga ulgurmabdi. Uzoqdan ko'ziga chiroyli ko'ringan temir qo'rqinchli ovoz chiqarib ustiga tusha boshlabdi. Kompyuter baqirib ogohlantirmaganida, belidan "g'arch" qisib qolar ekan. Bechora sichqoncha arang qochib qolibdi. - Tavba! Jerri qanday qilib pishloq topadi? Kompyuter qo'yib bergan multfilmda bari boshqacha edi-ku! Och qorin bilan sakrab bo'lmas ekan, sichqoncha tezda charchabdi. Kompyuterdan avvalgi holiga qaytarishni so'ramoqchi bo'lib turganida uni ko'rib qolgan Baroqvoy rosa quvlabdi. Kompyuter qarasa, ahvol chatoq, stolga arang chiqib olgan sichqonchani shoshapisha avvalgi holiga qaytaribdi. Hayron qolgan Baroqvoy esa uni bir-ikki hidlab "miyov" debdi-da, ortiga qaytib ketibdi. - Yashasin! Men yana aqlli sichqonchaman, - deb sevingan mittivoy do'sti kompyuterga rahmat aytibdi. Qissadan hissa shuki, tekin pishloq faqat multfilmda bo'ladi. Ana shunaqa!!!

umbaloq oshib- boshini yerga tirab, orqasiga ag'darilib o'ynamoq
arang- mashaqqat bilan, zo'rg'a
chatoq- qiyin, mushkul, yaxshi emas

Vogearlar ketma-ketligini hosil qiling.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Kompyuter va telefondan foydalanish qoidalarini ishlab chiqing. Siz o'zingiz bu qoidalarning qaysilariga amal qilasiz?

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Elektr manbalari

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'quvchilarga kitob o'qish aqlni charxlashi, so'z boyligini oshirishi, xotirani mustahkamlashi, tasavvurni kengaytirishi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi va insonlarni yaxshilik qilishga undashi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- darsda o'tiladigan hikoyalar, she'rlar, ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan parchalar, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali tevarak-atrof haqidagi bilimlarini kengaytirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stirish. To'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini hamda lug'at boyligini rivojlantirish. Vatan haqidagi tushunchalarini boyitish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bugun elektr quvvatisiz hayotni tasavvur qilib bolmaydi. Chunki uyimizdagi chiroqlar va ko'pgina jihozlar elektr quvvati yordamida ishlaydi.



Chiroqning uyi qayerda?

Dilfuza Shomalikova

Ayvonda buvisi bilan o'ynayotgan nabiralar chiroqni yoqib-o'chira boshladi. - Kunduzi chiroqni yoqmaydi, - dedi buvisi. - Qaranglar, hamma yoq y orug'. - Quyosh kunduzning chirog'imi? - Dono bolam, o'zing bilasan-da. Agar chiroqni keraksiz narsaga kunduzi yoqaversang, u xafa bo'lib ketib qoladi. Keragida - kechqurun yoqish kerak. - Ayting, qayerga ketadi?- Uyiga-da, bolam.- Uyi qayerda? - Uyimi, senga aytsam katta-katta suv omborlarida.- U suvning uyimasmi? - Suvning ham uyi, chiroqning ham. O'sha katta to'g'onlardan elektr quvvati olinadi. U hammamizning uyimizni yoritadi. Tushudinglarmi? Nodirbek yugurib borib oqayotgan suvni burab: - Yana chiroq oqib ketmasin, - dedi buvisiga.

Elektrostansiyalar

Ko'chalar-u uylarimizni kecha-yu kunduz yorug' bo'lishi uchun elektrostansiyalar muntazam ishlab turadi.Ulardagi generatorlar yordamida quvvati olinadi.Elektrostansiyalar turli xil bo'ladi. Elektr quvvati gidroelektrostansiyalarda (GES) suv harakati orqali olinadi. GESlar katta daryolarda qurilib, suv yo'li bir necha o'n metr balandlikda ko'tarilib to'siladi. Bu devor "to'g'on" deb ataladi. Elektr quvvati yana issiqlik elektrostansiyalarida (IES) yoqilg'i yonishi hisobiga olinadi. Atom elektrostansiyalarida (AES) yadro yoqilg'isi evaziga olinadi. So'nggi paytlarda odamlar dunyo bo'ylab yangi energiya manbalarini izlamogda. Birinchi navbatda, bular - shamol va quyosh energiyalaridir. Quyosh va shamol elektrostansiyalari tabiatga ziyon yetkazmaydi.



So'zlarni hosil qiling va energiya

• To'g'ri va teskari o'qilishi bir xil bolgan so'zlar toping.

Kuchuk, katak,...


• Fikrni toldiring.

Bugun darsda menga ... qiziq bo'ldi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoyani o'qing. Shamol va quyosh manbalari haqida ma'lumot to'plang. Hikoyani elektrostansiyalar haqidagi bilimlaringiz bilan boyiting va qayta so'zlab berishga tayyorlaning.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68, 91-397-77-37, 90-530-68-66 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi
2-sinf o‘qish savodxonlik fanidan konspektlarni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: HUMO

9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

ONLINE KOMPYUTER XIZMARLARI

O'zbek va rus maktablar uchun

Buyutirma asosida

1-11-sinflar uchun barcha fanlardan **testlar, nazorat ishlar, to'garaklar, tezislar va yillik fan konspektlar, tadbir senariylari, ochiq dars ishlanma va slaydlar** (taqdimotlar), mikro darslar, talabalarning amaliyot hujjatlari, kurs ishi, loyha ishi, **ko'rgazma va tarqatmalar, faxriy yorliq, diplom, tashakkurnomalar** va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan: @talimxizmatlar izlab toping.

1–11 классов подготавливаем:

тесты по всем предметам

контрольные работы

кружковые занятия

тезисы

годовые конспекты по предметам

сценарии мероприятий

разработки открытых уроков

слайды и презентации

микроуроки

документы по практике студентов

курсовые работы

проектные работы

наглядные и раздаточные материалы

почётные грамоты

дипломы

благодарственные письма

другие документы

Телефон: 91 669-34-74

Ищите нас в Telegram: @talimxizmatlar